



Humans sodiqlik Dasturi Ishtirokchilari o'rtasida Keshbek va Bonus o'tkazilishi Qoidalari

2022 yil, 3-avgust

Humans sodiqlik Dasturi Ishtirokchilari o'rtasida Keshbek va Bonus o'tkazilishi Qoidalarining mazkur ta'rif (keyinchalik – Qoida deb yuritiladi), Humans sodiqlik Dasturining ajralmas qismi hisoblanadi va "Humans" MChJning (100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mahtumquli ko'chasi, 2B-uy, INN 306624856) nomuayyan shaxslarga taklifidir.

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so'zlar atamalardir. Atamalarning ta'rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida va Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalari va www.humans.uz saytida, shuningdek, tariflarning tavsiflarida keltirilgan.
- 1.2. Jo'natuvchi – mazkur Qoidalarning 2.2. bandida belgilangan talablarga muvofiq jismoniy shaxsdir.
- 1.3. Qabul qiluvchi mazkur Qoidalarning 2.3. bandida belgilangan talablarga muvofiq jismoniy shaxsdir.
- 1.4. Amal qilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.
- 1.5. Qoidalarning amal qilish davri: 03.08.2022 dan muddatsiz to ular bekor qilinguniga qadar.

2. Keshbek va Bonus o'tkazilish shartlari

- 2.1. Qoidalarning amal qilish davrida va quyida shartlariga amal qilishda O'tkazuvchilar o'z Keshbek va Bonuslarini Oluvchilarga, Oluvchilar esa uni o'z Keshbek hisoblariga (keyinchalik o'tkazma deb yuritiladi) olishlari mumkin.
- 2.2. O'tkazuvchiga oid talablar:
 - 2.2.1. O'tkazuvchi Humans sodiqlik dasturida ishtiroki to'xtatilmagan yoki bekor qilinmagan Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchisi hisoblanadi.
- 2.3. Oluvchiga oid talablar:
 - 2.3.1. Oluvchi Humans sodiqlik dasturida ishtiroki to'xtatilmagan yoki bekor qilinmagan Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchisi hisoblanadi.
 - 2.3.2. Oluvchi Humans bilan Humans aloqa xizmatlari ko'rsatish Shartlarini qabul qilish orqali aloqa Xizmatlarini ko'rsatishga doir Shartnoma tuzgan va o'tkazish davrida Humansning mijozi hisoblanadi.
- 2.4. O'tkazma summasi (miqdori) cheklanmagan. Bunda O'tkazma O'tkazuvchining Keshbek hisobidagi summa bilan cheklanadi.
- 2.5. O'tkazmalar soni cheklanmagan.
- 2.6. O'tkazmalar faqat Humans Mobil ilovasidan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- 2.7. O'tkazmani amalga oshirishda, O'tkazuvchi Oluvchining Humans abonent raqamidan foydalanib, Oluvchini identifikatsiya qiladi.
- 2.8. O'tkazma texnik sabablarga ko'ra kechikish holatlaridan mustasno tarzda real vaqt ichida onlayn tarzda amalga oshiriladi.
- 2.9. O'tkazmani amalga oshirishda, Humans Oluvchining keshbek hisobiga O'tkazuvchi tomonidan jo'natilgan bonus UZS summasini tushiradi va O'tkazuvchining Keshbek hisobidan o'tkazilgan bonus UZS summasini yechadi.
- 2.10. O'tkazmani bekor qilish yoki qaytarib olish mumkin emas. Yangilishib o'tkazilgan Bonuslar qaytarilmaydi.
- 2.11. Oluvchilar olgan bonus UZSlarini faqatgina Humans sodiqlik Dasturi shartlariga rioya qilgan ravishda sarflashlari mumkin va bonus UZSlarni mablag' orqali olo olmaydilar.

3. Yakuniy qoidalar

- 3.1. Mazkur Qoidalar Provayderning Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda mazkur Qoidalarni o'zgartirish yoki tegishli ma'lumotni oldindan Saytda joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabardor qilish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasidir. Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.
- 3.2. Mijoz tarafidan Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlari jismoniy shaxslarga qarata taklif sanalgan Qoidalarga to'liq va qat'iy roziligini anglatadi.
- 3.3. Mazkur Qoidalar bilan tartibga solinmaydigan boshqa o'rinlarda Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalari amal qiladi.